

## DO‘STLIK TUMANI GEOGRAFIK JOY NOMLARI

**Egamqulov Husniddin Erkaboyevich**

**Guliston davlat pedagogika instituti**

**O‘qituvchi**

**Qodirov Shahboz Shukur o‘g‘li**

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti**

**2-bosqich magistranti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada geografik nomlar, ularning turlari, joy nomlarini qayta ko‘rib chiqishga oid O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, Jizzax viloyati va Do‘stlik tumanida joy nomlarini qayta ko‘rib chiqishga oid ma’lumotlar. Do‘stlik tumani ayrim toponimlari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Geografik obyektlar, joy nomlari, toponimika, Yangi berilgan nomi, QFY, aholi, o‘zbeklar, rus, qozoq, tatar.

**Аннотация:** В данной статье Закон Республики Узбекистан о ревизии географических названий, их виды, топонимы, сведения о пересмотре топонимов в Джизакской области и Достликском районе. Перечислены некоторые топонимы Достликского района.

**Ключевые слова:** Географические объекты, топонимы, топонимия, Новое название, КФЮ, население, узбеки, русские, казахи, татары.

**Annotation:** In this article, the Law of the Republic of Uzbekistan on revision of geographical names, their types, place names, information on revision of place names in Jizzakh region and Dostlik district. Some toponyms of Dostlik district are listed.

**Key words:** Geographical objects, place names, toponymy, New name, QFY, population, Uzbeks, Russian, Kazakh, Tatar.

Joy nomlarini o‘rganish o‘zbek olimlaridan XX asrda H.Hasanov (1963, 1964), S.Qorayev (1979, 1986), P.G‘ulomov (1979, 1993, 1994), A.Qayumov, M.T.Mirakmalovlarning o‘zbek geografik terminshunosligiga, shu jumladan

toponimikaga oid ko‘plab ilmiy ishlarini va turli ilmiy maqolalarini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Hozirgi kunda yuqoridagilardan tashqari, toponomikaga oid ilmiy izlanishlar geograflardan Q.Xakimov, Q.Seyitniyazov, F.Otaqulov, B.Eshboyev, M.Avezov va boshqalar tomonidan olib borilmoqda.

Jumladan Jizzax viloyatdagi ayrim aholi punktlariga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 41-son, 448-modda) va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 41-42-son, 483-modda) ijrosini ta‘minlash, shuningdek geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi qaror qiladi va bir qancha o‘zgartirishlar kiritdi.

**Do‘stlik tumanidagi nomlari o‘zgartirilgan qishloq fuqarolar yig‘inlari va aholi punktlari**

**RO‘YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Geografik obyektlarning amaldagi nomi</b>	<b>Geografik obyekt turi va joylashgan joyi</b>	<b>Yangi berilgan nomi</b>
<b>Do‘stlik tumani</b>			
<b>QFY nomlari</b>			
1.	Yangiobod QFY	QFY, Do‘stlik tumani	Oltin vodi
2.	Istiqlol QFY	QFY, Do‘stlik tumani	Manas

Xalq deputatlari viloyat Kengashi qaroriga asosan Do‘stlik tumanida xalq deputatlari tuman Kengashi ham qarori asosida bir qancha o‘zgartirishlar kiritdi.

**TUMAN HUDUDIDAGI AHOLI PUNKTLARINING TARKIBIY  
QISMLARIGA NOM BERISH VA ULARNING NOMLARINI  
O‘ZGARTIRISH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 41-son, 448-modda) va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 41-42-son, 483-modda) ijrosini ta’minlash, shuningdek geografik obyektlarni nomlash sohasidagi davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi qarori asosida quyidagi o‘zgartirishlar kiritildi.

**Do‘stlik tumanidagi aholi punktlari tarkibiy qismlariga nom berish va ularning  
nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha  
TAKLIFLAR**

T/r	Geografik obyektning amaldagi nomi	Obyekt turi va joylashishi	Geografik obyektga berilgan yangi nomi
<b>Aholi punktlari tarkibiy qismlaridagi shohko‘chalar va ko‘chalar</b>			
1.	Abay shoh ko‘chasi	Shoh ko‘cha. A. Navoiy MFY, Hamza MFY, Xolxo‘jayev MFY.	Istiqlol shoh ko‘chasi
2.	Do‘stlik shoh ko‘chasi	Shoh ko‘cha. A. Navoiy MFY, Hamza MFY, G‘. G‘ulom MFY.	Mustaqillik shoh ko‘chasi
3.	Hamza	Shoh ko‘cha. Hamza MFY.	Paxtakor shoh ko‘chasi
1.	Sh. Rashidov	Ko‘chalar. A. Navoiy MFY da	Mingchinor
2.	1-Sh. Rashidov		Lutfiy
3.	X. Isroilov		Guliston
4.	1-X. Isroilov		M. Zamaxshariy
1.	1-Nomsiz ko‘cha	Ko‘chalar. Yangihayot AP A. Navoiy MFY da	Chorchaman
2.	2-Nomsiz ko‘cha		Zarbdor
3.	3-Nomsiz ko‘cha		Anjirli
4.	4-Nomsiz ko‘cha		O. Sharafiddinov
5.	5-Nomsiz ko‘cha		A. Qodiriy
6.	6-Nomsiz ko‘cha		B. Naqshband
7.	7-Nomsiz ko‘cha		Izboskan
8.	8-Nomsiz ko‘cha		A. Fitrat
9.	9-Nomsiz ko‘cha		G‘ishtko‘prik
1.	Y. Oxunboboyev	Ko‘chalar. G‘. G‘ulom MFY da	Hayitobod
2.	1-Nomsiz ko‘cha		Dashtobod
3.	Sh. Nodirov		Uvaysiy
4.	1-A. Ikromov		Ziyolilar
5.	2-A. Ikromov		Sherobod
6.	3-A. Ikromov		O‘rikli
7.	4-A. Ikromov		Jomboy
1.	1-Hamza	Ko‘chalar. Hamza MFY da	Suvchilar

2.	2-Hamza		Oqdaryo
3.	3-Hamza		Tadbirkorlar
4.	1-Nomsiz ko'cha		Zafarobod
5.	2-Nomsiz ko'cha		To'qimachilar
6.	M. Dadajanov		M. Behbudiy
7.	Beruniy		Qo'shko'prik
1.	Xolxo'jaye	Ko'chalar Xolxo'jaye MFY da	Nurafshon
2.	1-Obod		Pillakor
3.	1-A. Temur		Zarafshon
4.	2-Obod		J. Manguberdi
5.	3-Obod		Cho'lobod
6.	1-Nomsiz ko'cha		Yakkatol
7.	O. Nurmatov		Xonimqo'rg'on
8.	2-Nomsiz		Yangisaroy
9.	3-Nomsiz		Mashinasozlar
1.	Sanoatchilar	Ko'chalar. Qozoqovul AP Xolxo'jaye MFY da	Kimyogarlar
2.	Sayfulin		Ko'ksaroy
3.	1-Nomsiz ko'cha		Binokor
4.	2-Nomsiz ko'cha		Gulbuloq
5.	3-Nomsiz ko'cha		Shahrisabz
6.	4-Nomsiz ko'cha		Bo'stonobod
1.	Hamza	Ko'chalar Paxta zavod yonidagi AP Xolxo'jaye MFY da	Fayzobod
1.	Nomsiz ko'cha	Ko'chalar. Pod Stansiya AP Xolxo'jaye MFY da	P. Mahmud
1.	1-Q. Mullayev	Ko'chalar. Qaxramon QFY da	Ahilobod
2.	2-Q. Mullayev		G'oliblar
3.	1-K. Saparov		Registon
4.	2-K. Saparov		Gulbodom
5.	1-Samarqand		To'raqo'rg'on
6.	Navbahor		Chamanzor
7.	1-Marhamat		Yoyilma
8.	1-M. Dadajonov		Oqoltin
9.	O'zbekiston		Farg'ona
10.	1-O'zbekiston		Olmali
11.	Do'stlik		Dang'ara
12.	1-Nomsiz ko'cha		G'allaorol
1.	1-Nomsiz ko'cha	Ko'chalar. Dexqonobod AP Qaxramon QFY da	Ogahiy
2.	2-Nomsiz ko'cha		Toshkechik

Yuqoridagi qaror asosida Do'stlik tumanidagi MFY nomlari, ko'chalarning nomsiz joylariga nom berilishi va mavjudlarini o'zgartirishlari hisobidan aholiga ancha qulayliklar keltirib chiqardi.

Vaholanki Do'stlik tumani joylashgan geografik o'rniga ko'ra Jizzax viloyatining sharqiy va shimoliy-sharqiy qismida joylashgan tuman hisoblanadi. Tuman aholisining soni va maydoni bo'yicha viloyatda kichik tumanlar qatoriga kiritiladi. Maydoni 450 km<sup>2</sup>. Aholisi esa 67 ming kishi (2022). Aholisi — asosan o'zbeklar, shuningdek, rus, qozoq, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi.

Aholining oʻrtacha zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 148 kishi toʻgʻri keladi. Shaharliklar 28 ming kishi, qishloq axolisi 38,3 ming kishi.

Tuman asosan viloyatning Arnasoy, Mirzachoʻl, Paxtakor tumanlari va Sirdaryo viloyatining Oqoltin tumanlari bilan chegaradosh. Doʻstlik tumanining hududi asosan tekisliklardan iborat. Moʻtadil iqlim mintaqasida joylashgan. Iqlimi keskin kontinental. Iyulning oʻrtacha harorati 40—45°, yanvarniki —2° dan —4° gacha. Vegetatsiya davri 250—260 kun.

Doʻstlik tumanini Janubiy Mirzachoʻl kanalining chap tarmoqlari kesib oʻtgan. Yillik yogʻin miqdori 400-500 millimetr. Havoning namlik darajasi qishda 70-80 %, yozda esa 25-30 % atrofida boʻladi. Sugʻoriladigan yer maydonlari 33,4 ming ga, shundan 17,9 ming ga yerga paxta, 13,7 ming ga yerga gʻalla, 1,8 ming ga yer maydoniga boshqa turdagi ekinlar ekiladi. Tuprogʻi unumdor boʻz tuproq. Baʼzi yerlarni shoʻr bosgan. Tuproqning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari koʻrilmoqda. Yovvoyi oʻsimliklardan kovrak, oqkuray, yantoq, tuyaqorin, qamish va boshqalar oʻsadi. Yovvoyi hayvonlardan tulki, ilon, toshbaqa, kaltakesak yashaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. LexUZ on-line sayti
2. S.Qorayev. Toponimika Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2006. 5-b.
3. Hakimov Q.M., Mirakmalov M.T. Toponimika darslik Toshkent-2020. 279-b
4. EGAMQULOV, H., & QODIROV, S. JIZZAX VA SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI. ЭКОНОМИКА, 67-70.
5. Faxriddin oʻgʻli, L. N., & Erkaboevich, E. H. (2022). THE PROCESS OF URBANIZATION AND ITS RELATION TO THE ENVIRONMENT. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 188-196.